# XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## *(2021-yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)*

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 372,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan 43,1 mln. AQSh dollariga yoki 13,1 % ga ko'paygan.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)***



| | 2020- yil | 2021- yil | O'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| **Tashqi savdo aylanmasi** | **329,0** | **372,0** | **113,1%** | **x** |
| **Eksport** | **130,0** | **165,7** | **127,5%** | **100,0** |
| *tovarlar* | *124,2* | *153,2* | *123,4* | *92,4* |
| *xizmatlar* | *5,8* | *12,5* | *2,1 m.* | *7,6* |
| | | | | |
| **Import** | **199,0** | **206,3** | **103,7%** | **100,0** |
| *tovarlar* | *199,0* | *206,3* | *103,7* | *100,0* |
| | | | | |
| **Saldo** | **-69,0** | **-40,6** | **x** | **x** |

Eksport hajmi 165,7 mln. AQSh dollari (27,5 % ga ko‘paygan) bo‘lib, import hajmi 206,3 mln. AQSh dollarini (3,7 % ga ko‘paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 40,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
***(2021- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)***




Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha jahonning 91 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (26,2 %), Rossiya Federatsiyasi (20,8 %), Turkiya (15,9 %), Qirg‘iz Respublikasi (8,1 %), Qozog‘iston (5,7 %), va Koreya Respublikasi (4,7 %) davlatlariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)***

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **92,9** | **51,2** | **97,3** |
| Eksport | 4,6 | 8,2 | 19,0 |
| Import | 88,3 | 43,0 | 78,3 |
| Saldo | - 83,7 | -34,9 | -59,3 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **56,1** | **107,3** | **77,6** |
| Eksport | 22,7 | 36,3 | 47,7 |
| Import | 33,4 | 71,0 | 29,8 |
| Saldo | - 10,7 | - 34,6 | 17,9 |
| **Turkiya** | **31,7** | **39,2** | **59,2** |
| Eksport | 6,1 | 14,1 | 18,8 |
| Import | 25,6 | 25,1 | 40,4 |
| Saldo | -19,6 | - 11,0 | -21,6 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **36,9** | **34,0** | **30,0** |
| Eksport | 36,3 | 33,7 | 29,8 |

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| Import | 0,6 | 0,3 | 0,2 |
| Saldo | 35,8 | 33,4 | 29,6 |
| **Qozog‘iston** | **26,1** | **21,5** | **21,3** |
| Eksport | 18,7 | 19,1 | 15,5 |
| Import | 7,4 | 2,4 | 5,8 |
| Saldo | 11,2 | 16,7 | 9,6 |
| **Koreya Respublikasi** | **13,7** | **21,3** | **17,6** |
| Eksport | 0,3 | 0,3 | 0,5 |
| Import | 13,5 | 20,9 | 17,1 |
| Saldo | - 13,2 | - 20,6 | -16,5 |
| **Turkmaniston** | **9,5** | **6,4** | **8,1** |
| Eksport | 3,7 | 2,6 | 4,6 |
| Import | 5,8 | 3,7 | 3,5 |
| Saldo | -2,1 | -1,1 | 1,2 |
| **Eron** | **9,0** | **4,9** | **7,6** |
| Eksport | 6,3 | 3,5 | 3,8 |
| Import | 2,8 | 1,4 | 3,8 |
| Saldo | 3,5 | 2,1 | 0,1 |
| **Ukraina** | **8,2** | **5,2** | **7,0** |
| Eksport | 6,1 | 1,4 | 2,5 |
| Import | 2,1 | 3,8 | 4,5 |
| Saldo | 4,0 | - 2,4 | -2,0 |
| **Pokiston** | **0,3** | **0,2** | **5,6** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 4,6 |
| Import | 0,3 | 0,2 | 0,9 |
| Saldo | - 0,3 | -0,2 | 3,7 |

**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,8 % ni tashkil etdi.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida 2020 - yilning shu davriga nisbatan 47,0 foizga oshgan va jami TSA dagi ulushi 59,2 % ni tashkil etdi.

## XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
***(2021- yil yanvar-sentabr)***

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 161 tani tashkil etib, ular tomonidan 165,7 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 27,5 % ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 92,4 % ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (49,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (30,4 %), turli xil tayyor buyumlar (7,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)***



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-sentabr)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **165,7** | **127,5** | **100,0** | **105,8** | **110,0** | **100,0** | **59,9** | **177,2** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 50,4 | 126,4 | 30,4 | 41,1 | 112,4 | 38,9 | 9,2 | 2,8 m. | 15,4 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 6,6 | 48,8 | 4,0 | 1,5 | 33,4 | 1,4 | 5,1 | 56,3 | 8,5 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | 0,2 | 996,6 m. | 0,1 | 0,1 | 674,3 m. | 0,1 | 0,1 | - | 0,1 |
| Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,1 | 3,2 | 0,0 | 0,1 | 4,2 | 0,1 | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,8 | 151,1 | 0,5 | 0,5 | 99,7 | 0,5 | 0,3 | - | 0,4 |
| Sanoat tovarlari | 82,0 | 174,6 | 49,5 | 41,4 | 147,1 | 39,2 | 40,5 | 2,0 m. | 67,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,3 | 168,3 | 0,2 | 0,3 | 164,1 | 0,3 | 0,0 | 69,4 m. | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 12,9 | 61,7 | 7,8 | 12,9 | 61,9 | 12,2 | 0,1 | 43,2 | 0,1 |
| Xizmatlar | 12,5 | 2,2 m. | 7,6 | 7,9 | 2,0 m. | 7,5 | 4,6 | 2,4 m. | 7,6 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda turli xil tayyor buyumlarga to‘g‘ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar, hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, % da)***

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 55,4 | 30,6 | 30,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 0,0 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 10,0 | 10,4 | 4,0 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 1,0 | 0,0 | 0,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,2 | 1,7 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,5 | 0,4 | 0,5 |
| Sanoat tovarlari | 22,0 | 36,1 | 49,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,7 | 16,1 | 7,8 |
| Xizmatlar | 8,1 | 4,5 | 7,6 |

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI
*(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)*

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 28,8 %), Qirg'iz Respublikasi (18,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11, 5%), Turkiya (11,3 %), Qozog'iston (9,3 %), Turkmaniston (2,8 %) va Pokiston (2,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 84,5 foizni tashkil etmoqda.



## XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
*(2021-yil yanvar-sentabr, % da)*




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg'iz Respublikasi va Turkiya o'rin egallagan.

## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
*(yanvar-sentabr)*

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 36,3 | 47,7 | 159,9 | 130,6 | 1 | 1 |
| Qirg'iz Respublikasi | 33,7 | 29,9 | 92,8 | 88,7 | 2 | 2 |

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 8,2 | 19,0 | 178,3 | 2,3 m. | 5 | 3 |
| Turkiya | 14,1 | 18,8 | 2,3 m. | 133,3 | 4 | 4 |
| Qozog‘iston | 19,1 | 15,5 | 102,1 | 81,1 | 3 | 5 |
| Turkmaniston | 2,6 | 4,6 | 70,3 | 176,9 | 7 | 6 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)***

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qirg‘iziston | | XXR | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | **2021- y.** |
| Jami eksport | 36,9 | 47,7 | 33,7 | 29,9 | 8,2 | 19 | 14,1 | 18,8 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 12,7 | 13,9 | 4,7 | 13,6 | 0,4 | 0,5 | 0,7 | 0,5 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | 0,0 | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 0,1 | 0,3 | 4,1 | 0,6 | 1,3 | 1,8 | 3,2 | 1,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | - | 0,1 | 0,0 | - | - | - | - | 0,0 |

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qirg‘iziston | | XXR | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | **2021- y.** |
| Hayvon va o‘simliklarmoyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | - | - | 0,2 | 0,0 | - | - | - | 0,3 |
| Sanoat tovarlari | 21,7 | 27,4 | 4,5 | 6,9 | 6,4 | 16,6 | 10,0 | 16,6 |
| Mashinalarva transport asbob-uskunalari | 0,0 | - | 0,1 | 0,2 | - | - | 0,0 | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,0 | 0,3 | 20,1 | 8,5 | - | - | 0,2 | 0,1 |
| Xizmatlar | 2,6 | 5,6 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,1 |

Xizmatlar eksporti hajmi 12,5 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 7,6 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga o‘sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (77,2%), safarlar (turizm) (14,5 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (8,3%) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi % da)***





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 48,8 mln. dollar qiymatli yoki 87,1 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 22,6 mln. AQSh dollariga teng 50,2 ming tonna sabzavot, shuningdek, 9,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 10,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 29,4 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**
***(2021- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)***



Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajribaga ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg‘iz Respublikasi (39,7 %), %), Rossiya Federatsiyasi (28,5 %), Qozog‘iston (18,0%), va Turkmaniston (4,1 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## XORAZM VILOYATINING IMPORTI
## *(2021- yil yanvar-sentabr)*

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 206,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga ko‘paygan.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (39,8 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (24,6 %), turli xil tayyor buyumlar (19,4 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari, 6,5 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)***



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 7,3 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 10,0 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 0,8 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,8 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 6,5 %
- Sanoat tovarlari – 6,3 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 38,8 %
- Turli xil tayyor buyumlar –29,4 %

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-sentabrida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,7 mln. AQSh dollariga ko‘paygan va 280,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-sentabr)*

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln. AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln. AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami import** | **206,3** | **103,7** | **100,0** | **46,0** | **55,4** | **100,0** | **160,4** | **138,3** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 15,0 | 28,4 | 7,3 | 9,2 | 22,5 | 20,1 | 5,8 | 49,0 | 3,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 3,6 m. | 0,0 | 0,0 | 3,6 m. | 0,1 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 20,6 | 96,0 | 10,0 | 17,5 | 98,9 | 38,1 | 3,1 | 82,3 | 1,9 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash | 1,7 | 84,5 | 0,8 | 1,1 | 57,6 | 2,4 | 0,6 | 8,1 m. | 0,4 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| materiallar | | | | | | | | | |
| Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,7 | 33,9 | 0,8 | 1,7 | 33,2 | 3,6 | 0,0 | 118,9 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 13,5 | 129,6 | 6,5 | 3,1 | 76,1 | 6,8 | 10,3 | 164,9 | 6,5 |
| Sanoat tovarlari | 13,0 | 102,1 | 6,3 | 5,0 | 83,3 | 11,0 | 7,9 | 119,2 | 4,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 80,0 | 137,3 | 38,8 | 3,7 | 75,8 | 8,0 | 76,4 | 142,8 | 47,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 60,7 | 168,1 | 29,4 | 4,5 | 2,0 m. | 9,9 | 56,2 | 165,7 | 35,0 |




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)***

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 4,0 | 26,6 | 7,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 8,2 | 10,8 | 10,0 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | 0,2 | 1,0 | 0,8 |

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,1 | 2,5 | 0,8 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 3,5 | 5,2 | 6,5 |
| Sanoat tovarlari | 4,4 | 6,4 | 6,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 54,2 | 29,3 | 38,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 24,4 | 18,2 | 29,4 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)***



2020- yil bilan taqqoslaganda, import bo‘yicha eng yuqori yettitalikda o‘zgarish kuzatilib, Braziliya o‘rnini Germaniya egalladi.



## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
*(yanvar-sentabr)*

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 43,0 | 78,3 | 48,7 | 182,1 | 2 | 1 |
| Turkiya | 25,1 | 40,4 | 98,0 | 160,9 | 3 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 71,0 | 29,8 | 2,1 m. | 42,0 | 1 | 3 |
| Koreya Respublikasi | 20,9 | 17,1 | 154,8 | 81,8 | 4 | 4 |
| Qozog‘iston | 2,4 | 5,8 | 32,4 | 2,4 m. | 11 | 5 |
| Ukraina | 3,8 | 4,5 | 180,9 | 118,4 | 6 | 6 |
| Germaniya | 3,1 | 4,5 | 52,5 | 145,2 | 8 | 7 |



## XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
*(2021- yil yanvar-sentabr)*



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga 51 ta xorijiy davlatlardan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Ukraina va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 180,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,5 % ni tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**
**Tel.: (62) 224-65-09**